



UDK: 314.74:327(575.1:73)

Zarnigor NAIMJONOVA,

Tayanch doktorant, Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti, Toshkent O'zbekiston

E-mail address: naimdjanova23@gmail.com, ORCID: 0009-0003-2230-1728

TDShUprofessori, s.f.d Sh.Yovqochev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON–AQSH MIGRATSIIYA MULOQOTI: YANGI IMKONIYATLAR VA STRATEGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi migratsiya muloqotining rivojlanish tendensiyalari, uning zamonaviy xalqaro migratsiya jarayonlaridagi o'rni hamda strategik hamkorlik istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi global migratsiya oqimlarining kuchayishi va ikki davlat o'rtasida mehnat migratsiyasi, ta'lim almashinuvi hamda xavfsiz migratsiya boshqaruvi sohasidagi hamkorlikning kengayishi bilan izohlanadi. Tadqiqotda sifatli tahlil, qiyosiy yondashuv va siyosiy-huquqiy hujjatlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Natijalar O'zbekiston–AQSh migratsiya muloqoti ikki tomonlama manfaatli strategik platformaga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi. Maqolada migratsiya siyosatini takomillashtirish, legal migratsiya kanallarini kengaytirish hamda inson kapitali almashinuvini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, AQSh, migratsiya muloqoti, mehnat migratsiyasi, strategik hamkorlik, migratsiya siyosati, inson kapitali.

МИГРАЦИОННЫЙ ДИАЛОГ УЗБЕКИСТАН–США: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции развития миграционного диалога между Узбекистаном и США, его роль в современных международных миграционных процессах, а также перспективы стратегического сотрудничества. Актуальность исследования обусловлена ростом глобальных миграционных потоков и расширением сотрудничества между двумя странами в сфере трудовой миграции, образовательного обмена и управления безопасной миграцией. В исследовании использованы методы качественного анализа, сравнительного подхода и анализа политико-правовых документов. Результаты показывают, что миграционный диалог Узбекистан–США может стать взаимовыгодной стратегической платформой. Предложены рекомендации по совершенствованию миграционной политики и расширению легальных каналов миграции.

Ключевые слова: Узбекистан, США, миграционный диалог, трудовая миграция, стратегическое сотрудничество, миграционная политика, человеческий капитал.

UZBEKISTAN–UNITED STATES MIGRATION DIALOGUE: NEW OPPORTUNITIES AND STRATEGIC APPROACHES

Annotation

This article analyzes the development trends of the migration dialogue between Uzbekistan and the United States, its role in contemporary international migration processes, and the prospects for strategic cooperation. The relevance of the study is driven by the intensification of global migration flows and the expanding cooperation between the two countries in labor migration, educational exchange, and migration security management. The research employs qualitative analysis, comparative methods, and policy document analysis. The findings indicate that the Uzbekistan–US migration dialogue can evolve into a mutually beneficial strategic platform. The article proposes recommendations for improving migration policy and expanding legal migration channels.

Keywords: Uzbekistan, USA, migration dialogue, labor migration, strategic cooperation, migration policy, human capital.

Kirish. Global migratsiya jarayonlari XXI asr xalqaro munosabatlar tizimining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biriga aylandi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha migratsiya oqimlari doimiy ravishda o'sib bormoqda va bu jarayon davlatlarning ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda tashqi siyosiy strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, migratsiya siyosati zamonaviy davlatlar tashqi siyosatining muhim instrumentiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so'ng xalqaro migratsiya tizimiga faol integratsiyalashib, mehnat migratsiyasi, ta'lim almashinuvi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan strategik rivojlanish konsepsiyalarida inson kapitalini rivojlantirish, mehnat resurslarining samarali boshqaruvi hamda xorijiy davlatlar

bilan migratsiya sohasidagi hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi migratsiya muloqoti so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu hamkorlik asosan mehnat migratsiyasi, talabalar almashinuvi, vizaviy tartiblarni soddalashtirish hamda xavfsiz migratsiya mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida rivojlanmoqda. Shu bilan birga, migratsiya oqimlarini boshqarish, noqonuniy migratsiyaning oldini olish va inson huquqlarini ta'minlash masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston–AQSh migratsiya muloqotining zamonaviy holatini tahlil qilish, uning strategik imkoniyatlarini aniqlash hamda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha

ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi migratsiya hamkorligining huquqiy va institutsional asoslarini o'rganish; mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribani tahlil qilish;

migratsiya muloqotining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

strategik rivojlanish imkoniyatlarini baholash va takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Migratsiya jarayonlarini o'rganish xalqaro munosabatlar, sotsiologiya va iqtisodiyot fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu sohada klassik va zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan bir qator nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. B.Buzan va R.Little tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tizimlar nazariyasiga ko'ra, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaygan sari transmilliy jarayonlar, jumladan migratsiya ham strategik ahamiyat kasb etadi. Neoliberal institutsionalizm yondashuvi (Keohane, Nye) esa xalqaro hamkorlik institutlari migratsiya boshqaruvida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda S. Castles va M. Miller migratsiyani globalizatsiya jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib, uning iqtisodiy va siyosiy oqibatlarini chuqur tahlil qilgan [1]. Shuningdek, D.Massey migratsiya nazariyasida "tarmoq effekti" tushunchasini kiritib, migratsiya oqimlarining o'z-o'zini kuchaytiruvchi xarakterga ega ekanligini asoslab bergan. O'zbekiston kontekstida migratsiya siyosati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan mehnat migratsiyasi, remittanslar va ijtimoiy himoya masalalari o'rganilgan. Biroq O'zbekiston-AQSh migratsiya muloqotining strategik va geosiyosiy jihatlarini yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Shu sababli ushbu maqola mavjud bo'shliqni to'ldirishga va ikki davlat o'rtasidagi migratsiya hamkorligini yangi konseptual darajada tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifatli (qualitative) va qiyosiy (comparative) tahlil yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqot dizayni deduktiv yondashuv asosida ishlab chiqilib, umumiy xalqaro migratsiya nazariyalaridan O'zbekiston-AQSh hamkorligi holatiga o'tish orqali tahlil amalga oshirildi. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat: Kontent tahlil – migratsiya bo'yicha xalqaro hujjatlar, ikki tomonlama bitimlar va rasmiy siyosiy bayonotlar tahlili.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston-AQSh migratsiya muloqotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik an'anaviy konsullik va vizaviy masalalardan kengroq strategik yo'nalishlarga o'tmoqda. Xususan, mehnat migratsiyasi, ta'lim almashinuvi hamda xavfsiz migratsiya boshqaruvi asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylanmoqda. Tahlil natijalari O'zbekiston-AQSh migratsiya muloqotining rivojlanishi avvalo institutsionallashtirish jarayonining kuchayishi bilan xarakterlanayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda migratsiya masalalariga oid rasmiy muloqot platformalari, konsullik hamkorligi, qo'shma ishchi guruhlar va huquqiy mexanizmlar soni ortib bormoqda [2]. Bu esa migratsiyani tartibga solish, noqonuniy migratsiyaning oldini olish hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tizimli yondashuv shakllanayotganini anglatadi.

Shuningdek, legal migratsiya kanallarining kengayishi ham ikki tomonlama hamkorlikning muhim tendentsiyasiga aylangan. Talabalar vizalari, akademik almashinuv dasturlari, professional tayyorgarlik va malaka oshirish imkoniyatlarining kengayishi O'zbekiston yoshlari uchun yangi istiqbollarni yaratmoqda [3,4]. Ayniqsa, AQSh universitetlari, grant dasturlari va ilmiy loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlarining ortishi inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada ikki davlat o'rtasida bilim,

innovatsiya va zamonaviy boshqaruv tajribasi transferi kuchaymoqda [5].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, migratsiya muloqotining eng faol rivojlanayotgan yo'nalishi aynan ta'lim va inson kapitali almashinuvi hisoblanadi. Chunki ushbu yo'nalish ikki davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi bilan izohlanadi. AQSh uchun malakali kadrlar va akademik hamkorlikni kengaytirish muhim bo'lsa, O'zbekiston uchun zamonaviy bilim va texnologiyalarni jalb qilish strategik ahamiyat kasb etadi [6]. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi va xavfsiz migratsiya boshqaruvi sohalari hali to'liq institutsional darajaga chiqmagan bo'lib, bu yo'nalishlarda normativ-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Statistik va siyosiy tahlillar O'zbekiston fuqarolarining AQShga migratsiya qilish motivlari asosan yuqori daromad imkoniyatlari, sifatli ta'lim muhiti, professional rivojlanish sharoitlari hamda innovatsion va texnologik sektorlarda faoliyat yuritish istagi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [7,8]. Shu bilan birga, global mehnat bozorida raqobatbardosh malaka olish va xalqaro tajriba orttirish omili ham muhim motivatsion sabab sifatida namoyon bo'lmoqda. Migratsiya muloqoti nafaqat iqtisodiy va ta'limiy hamkorlikni, balki O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash va ochiq tashqi siyosat konsepsiyasini rivojlantirishni ham qo'llab-quvvatlamoda [9,10].

Umuman olganda, O'zbekiston-AQSh migratsiya muloqoti bugungi kunda oddiy migratsion jarayon doirasidan chiqib, strategik sheriklik, inson kapitalini rivojlantirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishning muhim instrumentiga aylanmoqda. Kelgusida ushbu hamkorlikning samaradorligi migratsiyani boshqarishning raqamli tizimlarini rivojlantirish, legal migratsiya dasturlarini kengaytirish, diaspora bilan tizimli ishlash hamda xorijda tajriba orttirgan mutaxassislarining O'zbekiston taraqqiyotiga qayta integratsiyasini ta'minlash kabi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston-AQSh migratsiya muloqoti so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, asta-sekin ikki tomonlama strategik hamkorlik darajasiga chiqmoqda. Ushbu jarayon nafaqat migratsiya sohasidagi aloqalarni kengaytirishga, balki O'zbekistonning global migratsiya boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xavfsiz va tartibli migratsiya tamoyillarining rivojlanishi, xalqaro standartlarga mos mexanizmlarning joriy etilishi hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosatning kuchayishi ikki davlat o'rtasidagi muloqotning strategik xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar migratsiya siyosati bugungi kunda faqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayon emas, balki tashqi siyosatning muhim instrumentiga aylanayotganini ham tasdiqlaydi. Chunki migratsiya masalalari davlatlarning xalqaro imiji, diplomatik hamkorligi, xavfsizlik siyosati va iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning AQSh bilan migratsiya sohasidagi hamkorligi mamlakatning ochiq tashqi siyosati, xalqaro mobilitetni qo'llab-quvvatlash va inson resurslarini rivojlantirish strategiyasi bilan uyg'unlashmoqda.

Tadqiqot davomida mavjud hamkorlikning eng kuchli jihati sifatida ta'lim va inson kapitali almashinuvi yo'nalishi ajralib chiqdi. Xususan, talabalar almashinuvi, grant dasturlari, akademik hamkorlik va professional tayyorgarlik dasturlari orqali zamonaviy bilim va innovatsion tajriba transferi kuchaymoqda. Biroq mehnat migratsiyasi, legal ishchi migratsiyasi mexanizmlari hamda institutsional integratsiya jarayonlari hali yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa

normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish, yangi migratsion mexanizmlarni ishlab chiqish va ikki tomonlama institutsional hamkorlikni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot asosida bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida maxsus Migratsiya hamkorlik platformasini yaratish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu tizim migratsiya masalalari bo‘yicha muntazam siyosiy muloqot va tezkor koordinatsiyani ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, legal mehnat migratsiyasi uchun kvotalar va soddalashtirilgan vizaviy tizimlarni kengaytirish, yosh mutaxassislar hamda talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Qo‘shma ta‘lim va malaka oshirish dasturlarini ko‘paytirish esa inson kapitalini rivojlantirish va xalqaro tajriba almashinuvini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, migratsiya ma‘lumotlarini raqamlashtirish, yagona elektron bazani shakllantirish va

statistik monitoring tizimini takomillashtirish migratsiya oqimlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Noqonuniy migratsiya, inson savdosi va migratsion xavflarning oldini olish maqsadida esa qo‘shma monitoring va axborot almashinuvi tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat xavfsizlikni mustahkamlash, balki fuqarolar huquqlarini himoya qilish va xavfsiz migratsiya tamoyillarini ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston–AQSh migratsiya muloqoti ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Kelgusidagi tadqiqotlar migratsiya siyosatining iqtisodiy samaradorligi, remittans oqimlarining milliy iqtisodiyotga ta‘siri, diaspora salohiyati hamda migratsiya va xavfsizlik siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Castles, S., Miller, M. J. The Age of Migration. Guilford Press, 2014.
2. Massey, D. S. et al. International Migration Theory. Population and Development Review, 1993.
3. Keohane, R. O., Nye, J. S. Power and Interdependence. Harvard University Press, 2001.
4. Buzan, B., Little, R. International Systems in World History. Oxford University Press, 2000.
5. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. Geneva, 2024.
6. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). International Migration Report. New York, 2023.
7. World Bank. Migration and Development Brief. Washington DC, 2024.
8. Prezident Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va ma‘ruzalari to‘plami. Toshkent, 2023–2025.
9. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy ma‘lumotlari. Migration Policy Institute. Global Migration Trends Report, 2023.
10. OECD: International Migration Outlook 2024. Paris, 2024.